



**МАКТАБ О'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH –
KELAJAK POYDEVORI**

Saparqulova Ra'no Mamatovna

*Toshkent viloyati Oqqurg'on tuman MMTBga qarashli 12-sonli umumiy
o'rta ta'lif maktabining amaliyotchi psixolog*

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiy barqarorlik ko‘p jihatdan malakali mutaxassislar soni va sifati bilan belgilanadi. Shu sababli, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish – zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Maktab davridayoq o‘quvchilarda kasb tanlash madaniyatini shakllantirish, ularni mehnat bozoriga tayyorlash – ularning kelajakdagagi muvaffaqiyatli hayoti uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbga yo‘naltirish – bu o‘quvchining o‘z qiziqishlari, qobiliyati, shaxsiy fazilatlari va mehnat bozoridagi ehtiyojlar asosida unga mos kasbni tanlashga ko‘mak beruvchi tizimli jarayondir. Bu jarayon o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- kasblar haqida to‘g‘ri va keng qamrovli ma’lumot berish,
- o‘quvchining shaxsiy qiziqish va iqtidorini aniqlash,
- psixologik va pedagogik maslahatlar orqali tanlovga yordam berish,
- kasbiy yo‘nalishdagi amaliy mashg‘ulotlar va ekskursiyalarni tashkil etish.





Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'plab yoshlar maktabni bitirganidan keyin o'z kasbini yanglish tanlaydi yoki tanlagan kasbda ishlamaydi. Bu esa vaqt, mablag' va imkoniyatlarning zoye ketishiga olib keladi. O'quvchilarni erta bosqichdayoq kasbga yo'naltirish orqali:

- ularning kelajakdagi hayotiy yo'li aniq bo'ladi,
- mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltiriladi,
- ijtimoiy moslashuvchanlik va mustaqillik shakllanadi.



Maktabda qanday ishlar olib borilishi kerak?

1. Kasb tanlash bo'yicha suhbatlar va seminarlar – Ota-onalar, mutaxassislar va psixologlar ishtirokida ochiq muloqotlar tashkil etilishi lozim.
2. Kasbiy testlar va savolnomalar – O'quvchilarning qiziqish va moyilligini aniqlovchi maxsus testlar orqali individual yondashuv ta'minlanadi.
3. Ishlab chiqarishga sayohatlar – Mahalliy korxonalar, kasb-hunar kollejlari va texnikumlarga ekskursiyalar uyushtirish orqali o'quvchilar real ish muhiti bilan tanishadilar.
4. Kasb tanlash haftaligi – Har yili bir hafta davomida turli kasblar tanishtiriladi, mehmonlar chaqiriladi, kasbiy ko'rgazmalar o'tkaziladi.



Kasb – bu nafaqat daromad manbai, balki insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi omildir. Maktab o‘quvchilarining to‘g‘ri kasb tanlashi – ularning hayotdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy faolligi va baxtiyorligi garovidir. Shuning uchun ham, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish masalasi har bir o‘qituvchi, psixolog va ota-onaning ustuvor vazifasiga aylanishi kerak.